

ISHEMIK INSULTNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH CHORALARI

Nazarova Y.X

Fargʻona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti,
tibbiy va biologik kafedra assistenti.

Samiyeva Sarvinoz

Fargʻona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti,
Davolash ishi yoʻnalishi 1-kurs talabasi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada insultning kelib chiqish sabablari, turlari va asoratlari xamda davolash usullari haqida maʼlumotlar keltirilgan.*

***Kalit soʻzlar:** Insult, Ishemik insult, Gemorragik insult, Tromb, Angiospazm, Ataksiya, giperkinez.*

Kirish: Insult-(lotincha:*insulto*-zarba, hujum qilmoq) bosh miyada qon aylanishining toʻsatdan buzilib, miya toʻqimasining zararlanishi va funksiyasining izdan chiqishi; miya tomirlari aterosklerozi, anevrizma vaskulit va boshqa bir qancha kasalliklar insultga sabab boʻla oladi. Ushbu kasallik keng tarqalgan oʻlim sabablari orasida 3-oʻrinni egallaydi. Ishemik (qon miyyaning baʼzi joylariga toʻlgan). Gemorragik (miya toʻqimasi qon bilan toʻlgan) turlari mavjud. Kasallikka sabab boʻladiga omillar: Tananing ortiqcha vazni, miya qon tomirlari trombozi, bosh miya qon tomirlari aterosklerozi, emboliya, arterial qon tomir devori sustligi, anevrizma, arterial gipertenziya, travma (bosh miya travmasi).

Mavzuning dolzarbligi:

Ishemik insult kelib chiqishi asosan bosh miya qontomirlarining qisilishi yaʼni angiospazmidir. Turli xil gemodinamik oʻzgarishlar har xil ruhiy holatlar bosh miya

qontomirlarning qisilishiga olib keladi va u yerdan qonning o'tishi sekinlashadi. Bunda bosh miya to'qimasida yumshashish holati holati yuzaga keladi. Qontomirlar ichida tromb hosil bolishi, bunda bosh miya qon tomirlarida qonning sekin aylanishi tufayli qontomirlar devorida qoning shakilli elementlari cho'ka boshlaydi. Natijada qonning o'zidan tromb hosil bo'ladi.

Tromb hosil bo'lishiga yana qonning biokimyoviy o'zgarishi, ya'ni uni ivishining buzilishidir. Bundan tashqari kalla suyagi tashqarisidagi ekstrakranial qontomirlarining qisilishi ham ishemik insultga olib keladi.

Ishemik insult-boshqacha miya infarkti ham deyiladi. Ishemik insult asosan 45-50 yoshdan keyin ko'proq qariyalarda uchraydi. Ishemik insultning kelib chiqishi asosan bosh miya qon tomirlarining qisilishi, ya'ni angiospazmidir. Turli xil gemodinamik o'zgarishlar har xil ruhiy holatlar bosh miya qon tomirlarining qisilishiga olib keladi va u yerdan qonning o'tishi sekinlashadi. Qon tomirlar ichida tromb hosil bo'lishi, bunda bosh miya qon tomirlarida qon sekin aylanishi tufayli qon tomirlar devorida qonning shakilli elementlari cho'ka boshlaydi. Tromb hosil bo'lishiga yana qonning biokimyoviy o'zgarishi ya'ni uni ivishining buzilishi ham sabab bo'adi. Bundan tashqari kalla suyagi tashqarisidagi ekstrakranial qon tomirlarining qisilishi ham ishemik insultga olib keladi.

Bu kasallikda dastab bosh og'rishi, aylanishi, ketinchalik esa bemor hushdan ketmay qo'l va oyoq uvishadi, so'ngra parez yoki falaj bo'ladi, sezish qobiliyati yo'qoladi yoki pasayadi, nutq buziladi, bemorning rangi o'chgan, ko'z qorachig'i tor, pulsi zaif, ammo harorat normal bo'ladi. Ataksiya-muvozanatning buzilishi beradi. Giperkinez-ixtiyorsiz harakatlar va ruhiyatning buzilishi kabi belgilar kuzatilishi mumkin.

Kasallikni davolash uchun birinchi navbatda miyada qon aylanishini yaxshilovchi dorilar: enfilin 2.4% 5-10ml tomir ichiga, magneziy sulfat 25% 5-10ml mushak orasiga novakain bilan birga, papaverin 2% 2ml va diabazol 1% 2-4 ml mushak orasiga qilinadi. Bemorga birinchi kuni shirinchoy, meva sharbati keyinchalik yutinish bo'lmasa zond orqali kuniga 5 marta ovqatlantirish talab etiladi.

Xulosa: Insult bilan og‘rigan bemorlarni juda ehtiyotkorlik bilan qarashlari talab etiladi. Bemor boshini tana qismiga nisbatan bizzor ko‘tarib qo‘yilishi va harakat qilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Ushbu kasallikni oldini olish uchun sog‘lom turmush tarziga amal qilishimiz darkor. Tanamizda qon aylanishi va qon bosimimizni nazoratda ushlashimiz va ko‘proq jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishimiz kerak. Unutmang har qanday kasallik noto‘g‘ri turmush tarzi, kam harakatlik va noto‘g‘ri ovqatlanish orqali kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ahmedov G. Ziyomutdinova “Anatomiya Fiziologiya va Patalogiya” 2019-yil Toshkent
2. ”Ichki kasalliklar”Y.I Arslonov T A Nazarov A.A Bobomurodov
3. [https://library :tsdi.uz](https://library.tsdi.uz)
4. WWW.Avitsenna.uz WWW.Tabobat.uz